

XX ASRNING BOSHLARIDA BOLA RIVOJLANISH NAZARIYALARI

*Shomurotov Ulugbek Melikboboyevich**Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti
o'qituvchi u.shomurotov@dtpi.uz**+998915107420**Normurotova Shafoat Istamqulovna**Sariosiyo pedagogika kolleji talabasi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bo'lajak psixologlarda XX asrning boshlarida bola rivojlanish nazariyalari haqida ilmiy bilimlarni hosil qilish, bola psixik rivojlanishining ijtimoiy va biologik omillari ahamiyatini singdirish va mavzuning ta'limiy va tarbiyaviy o'quv maqsadlari asosida talabalar dunyoqarashini kengaytirish qaratilgan.

Kalit so'zlar: psixologiya, genetik metod, genetik psixologiya, M.Montessori Syoll, filogenez, ontogenez

Абстрактный: Целью данной статьи является создание у будущих психологов научных знаний о теориях развития ребенка начала XX века, привитие значения социальных и биологических факторов психического развития ребенка, расширение мировоззрения учащихся на основе образовательной и образовательные цели предмета.

Ключевые слова: психология, генетический метод, генетическая психология, М. Монтессори Шёлль, филогения, онтогенез.

Abstract: This article aims to create scientific knowledge about the theories of child development in the beginning of the 20th century in future psychologists, to inculcate the importance of social and biological factors of the child's mental development, and to expand the worldview of students based on the educational and educational goals of the subject.

Key words: psychology, genetic method, genetic psychology, M. Montessori Sjoll, phylogeny, ontogeny

XX asrning birinchi 10-yilligida bola shaxsi rivojlanishi muammosi bilan shug'ullangan psixologlar orasida eng yetakchilari sifatida A.Bine, E.Meyman, D.Syolli, E.Klaperd, V.Shtern, A.Gezell va boshqalarni kiritish mumkin. Ingliz olimi Dj.Syolli inson psixikasini shakllanishiga nisbatan assotsiativ yondashuv pozitsiyasidan qaragan. U aql his-tuyg'u va irodani psixikaning asosiy tarkibiy qismi sifatida ajratib ko'rsatgan. Uning izlanishlari bolalar tarbiyasi amaliyoti uchun bolalardagi birinchi assotsiatsiya va ularni yuzaga kelishining ketma-ketligi tarkibini aniqlashdan iborat edi.

M.Montessori Syollining izdoshi sifatida uning xulosalariga tayanib maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning bilish jarayoni rivojlanish tizimini ishlab chiqdi. U bola shaxsini o‘rganishda ular rivojlanishining ichki impulslarini bilish va inobatga olish haqidagi tasavvurlaridan kelib chiqadi. Bolalarning bu davri hissiylik davri deb e’tirof etilib, bu vaqtda o‘zining moyilligi mavjud bo‘lgan bilimlarini o‘zlashtirishga imkon berishi kerak. M.Montessori turli xil his-tuyg‘u va harakatlarni mashq qildirish orqali ularni sekin-asta anglashga murakkablashtirishga, mukammallashtirishga katta ahamiyat qaratgan. Natijada bu tafakkur jarayonining rivojlanishiga olib keladi. Maktabgacha yoshdagagi bolalarning ta’limi va tarbiyasini tashkil etishga nisbatan Montessorining g‘oyasi juda keng tarqaldi va hozirgi vaqtda Rossiyada bu tamoyillar bo‘yicha bir nechta bolalar bog‘chasi yoki guruhlarga qo‘Jlanilgan.

Nemis psixologi va pedagogi E.Meyman ham bolalarning bilish jarayonlarini rivojlanishi muammolariga, shuningdek, ta’limning metodologik asoslarini ishlab chiqishga asosiy e’tiborini qaratgan. Meyman tomonidan davrlashtirishda 3 bosqichga, ya’ni fantastik sintez bosqichi, analiz bosqichi, fikriy sintez bosqichlariga ajratilgan.

E.Meyman laboratoriysi qoshida tashkil etilgan eksperimental maktabda bolalarning ta’lim dasturlariga tayyorlik darajasini diagnostika qilish metodlari ishlab chiqilgan. Unga ko‘ra, ta’lim dasturlari va sinflarni shakllantirish mezonlari sinovdan o‘tkazilgan (masalan, intellekt darjasи, qiziqishlari, o‘qituvchi bilan hamkorlik bo‘yicha).

Shveysariyalik psixolog E.Klapared Xollning rekapitulatsiya tasavvurlarini tanqid qilib chiqqan. Uning psixika filogenezi va ontogenezi umumiy mazmunga ega va bu rivojlanishning birinchi qatorini o‘xshashligiga olib keladi, ammo ularni bir xil demaydi. Klaparedning o‘ylashicha bola psixikasining rivojlanish bosqichlari instinktiv jihatdan aniqlanmagan, u qobiliyatlarni o‘zida shakllantirish g‘oyasini taqlid va o‘yin mexanizmlari yordamida deb hisoblagan. Tashqi omillar rivojlanishga ta’sir etib, uni yo‘nalishini aniqlaydi hamda tempini kuchaytiradi.

Psixik rivojlanishni Klapared tafakkur rivojlanishiga tenglashtirilgan va tafakkur tipining o‘zgarishiga tayanib 4 bosqichga ajratgan.

1-bosqichda (2 yoshgacha) predmetlarning tashqi ko‘rinishini eslab qolish idrokni shakllanishi sodir bo‘ladi;

2-bosqichda (2 yoshdan 3 yoshgacha) nutqiy predmetlar nomlari o‘zlashtiriladi.

3-bosqichda (3 yoshdan 7 yoshgacha) tafakkur bolaning umumiy aqliy qobiliyatlari

4-bosqichda (7 yoshdan 12 yoshgacha) maxsus qiziqishlar shakllanadi va individning individual moyilliklari ifodalanadi.

E.Meyman va E.Klapared ishlari bolalar yosh davrlari psixologiyasiga asos bo‘ldi va uning predmetini aniqlab maxsus vazifa va muammolarni shakllantiradi. Bolalar psixologiyasi pedalogiya pedagogikani rivojlanishi, bolalar psixik rivojlanishini tadqiq

etishning ishonchli metodlarini ishlab chiqilishini taqozo etdi.

Fransuz psixologgi A.Bine bolalar psixologiyasida testologik va normativ yo‘nalishlarning assoschisidir. Bine bolalarda tafakkur rivojlanishining darajalarini eksperimental tadqiq etdi. Ularning oldiga tushunchalarni aniqlash topshirig‘ini qo‘ygan holda («stul» nima, «ot» nima va boshqalar). Turli yoshdagi bolalarning javoblarini umumlashtirib, u 3 yoshdan 7 yoshgacha bolalar tushunchalari rivojlanishining 3 bosqichini aniqladi: sanoq bosqichi, ta’riflash bosqichi va interpretatsiya bosqichi. Har bir bosqich ma’lum yosh bilan tenglashtirilgan va Bine intellektual rivojlanishni ma’lum normativlari mavjudligi haqida xulosa qildi.

Ta’lim vazirligi talabiga ko‘ra Bine rivojlanishda normadan og’ishgan va shu tariqa yordamchi maktabda ta’lim olishga muhtoj bo‘lgan bolalarni ajratib oluvchi metodni ishlab chiqdi. Keyinchalik u 3 yoshdan 18 yoshgacha bo‘lgan bolalarni intellektual rivojlanishning umumiyligi diagnostika qilish uchun testlar ishlab chiqdi. Har bir yosh davri uchun Bine murakkablik darajasi bo‘yicha variatsiyalari bilan intellektual rivojlanishini turli tomonlarini tadqiq etuvchi topshiriqlarni tanlab oldi. Ularga so‘z boyligini, sanoqni, xotirani, umumiyligi bilimini, makoniyligi mo‘ljalga olishni, mantiqiy tafakkurni va boshqalarni tekshiruvchi topshiriqlar kiritilgan. Bine g‘oyasiga ko‘ra, topshiriqlar bu yoshdagi barcha bolalarga xos bo‘lgan minimal malakaga yo‘naltirilgan. Faqat shundagina teng diagnostik sharoitda tug‘ma yuqori intellektual darajali bolalar, ya’ni qobiliyatli va tarbiyalı bolalar bo‘ladilar. Binening shogirdi T.Simon tomonidan tuzilgan maxsus shkala yordamida bolaning aqliy yoshi hisoblangan.

Keyinroq aniqroq diagnostika qilish uchun nemis psixologgi Shtem intellekt koeffitsientini kiritishni taklif etdi. Bine intellekt darajasi tug‘ma qobiliyat sifatida hayot mobaynida o‘zgarmaydi va turli topshiriqlarni bajarishga yo‘naltirilgan. Intellektual norma 70 dan 130% koeffitsient deb hisoblangan. Shunga ko‘ra aqlan qoloq bolalar 70% dan past ko‘rsatkichlarni olganlar, iqtidorlilar 130% dan yuqori ko‘rsatkichni olganligini ko‘rshimiz mumkin.

Bolalar psixologiyasi fanining asosiy e’tibori tug‘ilganidan yetuklik davrigacha inson psixikasi va ongingin qanday rivojlanishiga qaratilgan, ya’ni har bir shaxs uzoq bolalik davrini boshdan kechiradiki, bu davrda unda alohida psixik jarayon va xususiyatlar yuz beradi. Shuning uchun ham bu davrni fanda alohida ajratib o‘rganiladi va uni ontogenetik (tug‘ilgandan ulg‘aygungacha o’sib yetilish davri) taraqqiyot yo‘li deyiladi.

Bolalar psixologiyasi bola psixikasining taraqqiyoti hamda shaxsiy xususiyatlarining yuzaga kelishiga ta’sir qiluvchi omillarni ham o‘rganadi. Bolalar psixologiyasi bu muammolarni hal qilishda mustaqil fan sifatida o‘ziga xos vazifalarni hal etmog‘i lozim.

Bugungi kunda bolalar psixologiyasi fanining oldida bir qancha muhim nazariy

va amaliy vazifalar turadi. Bolalar psixologiyasining nazariy vazifalari uning nazariy muammolarini yechishga qaratilgan. Jumladan, uning nazariy vazifalariga quyidagilar kiradi:

1. Turli yoshdagi bolalarga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni, ya’ni bolalarning idrokiga, sezgi — tuyg‘ulariga, diqqatiga va xotirasiga, nutqi va tafakkuriga, xayoliga, irodasiga xos xususiyatlarni o‘rganish.
2. I.P.Pavlovning oliy nerv faoliyati haqidagi ta’limoti asosida turli yoshdagi bolalar psixik jarayonlari xususiyatlarining nerv- fiziologik asoslarni o‘rganish.
3. Bolaning psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qiluvchi omillarni aniqlab berish.
4. Turli yoshdagi bolalarning rivojlanishiga xos bo‘lgan qonuniyatlarni o‘rganish.
5. Bola shaxsiga xos bo‘lgan psixologik xususiyatlarni o‘rganish.
6. Bolani maktab ta’limiga tayyorlash.
7. Maktabda muvaffaqiyatli o‘qish uchun bolaning aqliy jarayonlarini faollashtirish.
8. Ta’lim jarayonida bolaning mustaqil, ijodiy, faol tafakkurini shakllantirish.
9. Ta’lim-tarbiya jarayonida bolaning maxsus qobiliyatlarini shakllantirish.
10. Ta’lim-tarbiya ishlarini psixologik mazmunini olib berishdan iboratdir.

Uning amaliy vazifalariga turli yoshdagi bolalarning psixik taraqqiyoti xususiyatlariga doir bilimlarni tarbiyachilar, o‘qituvchilar, ota-onalar, ya’ni jamoatchilar o‘rtasida keng yoyishdan iborat. Bolalar psixologiyasining amaliy vazifasi — keng jamoatchilik bola ruhiy taraqqiyotiga, yoshlik xususiyatlari orasidagi farqlar va ularga individual munosabatda bo‘lish yo‘llariga doir, ruhiy taraqqiyot qonunlariga doir psixologik bilimlardan bahramand bo‘lmoqlarini ta’minlashdan iborat. Jamoatchilikni psixologik bilimlardan xabardor qilish, ro‘znama va oynomalarga maqolalar yozish, radio va teleko‘rsatuvlarda turli eshittirishlar tashkil qilish, ota-onalar bilan suhbatlashish, mahallalarda bola tarbiyasi haqida ma’ruza, suhbat va bahslar uyuشتirish yo‘li bilan amalga oshiriladi. Bu vazifalarni amalga oshirish komil insonni shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro’yxati:

1. Davletshin M.G. va boshqalar. «Yosh davrlar va va peda- gogik psixologiya». — T.: TDPU. 2009.
2. Nishanova Z.T., Dusmuxamedova Sh.A. va b. «Yosh davrlari va pedagogik psixologiya». — T.: Fan va texnologiyalar nashriyotining bosmaxonasi. 2013. - 344 b.
3. Melikboboyevich, S. U. (2024). BOLALARNING PSIXIK RIVOJLANISHIGA O ‘YINCHOQLARNING TA’SIRI. SAMARALI TA’LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI, 2(2), 172-179.

4. MELIKBOBOYEVICH, S. U., QIZI, O. R. Z. S., & QIZI, Q. K. A. (2024). INSONIY MUOMALA VA MULOQOTNING PSIXOLOGIK VOSITALARI. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 180-188.
5. Melikboboyevich, S. U., & Annamuhammat o‘g‘li, S. A. (2024). Psixodiagnostika metodlari va ulardan foydalanish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 165-171.
6. Melikboboyevich, S. U. (2024). MEASURES TO PREVENT AGGRESSIVE ATTITUDES BY THE TEACHER TO THE STUDENT FOR LATING TO THE LESSONS. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 127-134.
7. Abdukarimovich, T. Y. L., Melikboboyevich, S. U., & Isokovich, U. F. (2024). Xotira haqidagi qarashlar va xotirani rivojlantirish. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 2(2), 109-117.
8. Melikboboyevich, S. U., & Yusufaliyevna, H. S. (2024). EDUCATOR'S SKILL IN ELIMINATING AGGRESSIVE SITUATIONS OF CHILDREN RAISED IN PRESCHOOL EDUCATION ORGANIZATION. *SAMARALI TA'LIM VA BARQAROR INNOVATSIYALAR JURNALI*, 1(6), 611-616.
9. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR FAOLIYATNING PSIXOLOGIK TAHLILI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 93-103.
10. Melikboboyevich, S. U. (2024). MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA O 'YIN FAOLIYATINING XUSUSIYATLARI. BOLA HAYOTIDA O 'YINNING AHAMIYATI. NAZARIY VA AMALIY FANLARDAGI USTUVOR ISLOHOTLAR VA ZAMONAVIY TA'LIMNING INNOVATSION YO'NALISHLARI, 1(2), 85-92.